



RESPUBLIKA TURIZM SANOATIDA AGROTURIZM RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA DINAMIKASI

Baymuradova Iroda Shermamatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

ORCID: 0009-0007-2301-6717

iroda_05_09@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada agroturizm bo'yicha mamlakat salohiyati, turistlar hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining agroturizmga qiziqishlari o'rganilgan. Ma'lumotlar turizm sohasidagi asosiy statistik ko'rsatkichlar hamda Samarqand viloyati 12 ta tumanining tog'li, cho'lli va sug'oriladigan hududlaridagi 153 ta qishloq xo'jaligi korxonalaridan, shuningdek, 210 nafar mahalliy va xorijiy turistlardan olingan so'rovnomalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: agroturizm, agroturistik xizmatlar, "turizm qishlog'i", huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa muammolar.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ АГРОТУРИЗМА В ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ

Баймурадова Ирода Шерматовна

*Самаркандский филиал Ташкентского
государственного экономического университета*

Аннотация. В данной статье рассматривается потенциал страны в агротуризме, интерес туристов и сельхозпроизводителей к агротуризму. Данные были проанализированы на основе основных статистических показателей в сфере туризма и анкет, полученных от 153 сельскохозяйственных предприятий горных, пустынных и орошаемых территорий 12 районов Самаркандской области, а также от 210 местных и иностранных туристов.

Ключевые слова: агротуризм, агротуристические услуги, «туристская деревня», правовые, экономические, социальные и другие проблемы.

CURRENT STATE AND DYNAMICS OF AGRITOURISM DEVELOPMENT IN THE TOURISM INDUSTRY OF THE REPUBLIC

Baymuradova Iroda Shermamatovna

Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the country's potential in agritourism, the interest of tourists and agricultural producers in agritourism. The data was analyzed on the basis of basic statistical indicators in the field of tourism and questionnaires received from 153 agricultural enterprises in mountainous, desert and irrigated areas of 12 districts of the Samarkand region, as well as from 210 local and foreign tourists.

Keywords: agritourism, agritourism services, "tourist village", legal, economic, social and other problems.

Kirish.

Bugungi kunda Respublikada turizm sohasini jadal rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida turistlarni tabiatga oshno qiladigan turlariga e'tibor kuchaymoqda. Xususan, qishloq hududlarida agroturizmni rivojlantirish barqaror rivojlanish omili sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi salohiyati yuqori bo'lgan viloyatlarda keng targ'ib qilinmoqda.

Biroq so'nggi besh yilda turizm turli omillar, jumladan texnologiyaning rivojlanishi, iste'molchilar xohish-istaklaridagi tafovutlar va COVID-19 pandemiyasi kabi global hodisalar tufayli sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Pandemiya vaqtida turistlar soni turli davlatlarda e'lon qilingan karantin cheklovlari hisobiga keskin kamaydi va O'zbekiston ham turizm iqtisodiyotida katta zarar ko'rgan mamlakatlardan biriga aylandi. Respublikada turizmdan tushgan daromad 2019-yilda 1,679 milliard dollar, 2021-yilda 679 million dollarni tashkil qildi. Pandemiya oqibatlari global turizmni to'xtatib qo'ygani sababli 2020-yilda O'zbekistonda turizmdan tushgan daromad 76,5% foizga qisqardi, ya'ni 395 million dollarni tashkil qildi.¹¹

Yo'qotilgan zararni qoplash uchun turizm sohasida so'nggi yillarda Respublikada sayyohlar oqimini oshirish strategiyasi ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 13-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-son Farmonida keltirilgan masalalar turizm salohiyatini oshirish borasida qilinayotgan islohotlar natijasidir. Unga ko'ra turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiyada belgilangan vazifalar doirasida turizm sohasidagi infratuzilma va xizmatlar yaxshilangan holda, turistlarni ko'proq jalb qilishga harakat qilinmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Ko'plab xorijiy adabiyotlarda agroturizmni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati, uning fermer xo'jaliklari daromadlarini oshirishdagi roli to'g'risida bayon qilinadi. Jumladan, Sharon Flanigan, Kirsty Blackstock, Colin Hunterlar agroturizm tipologiyasini tuzib, kelajakdagi empirik tadqiqotlar uchun asos sifatida tavsiya qilishgan.

Claudio Lupi, Vincenzo Giaccio, Luigi Mastronardi, Agostino Giannelli, Alfonso Scarderalar tadqiqotlarida (Lupi va boshq., 2017) fermer xo'jaliklarining agroturizmni tashkil etishlarida xo'jalik landshafti va uning atrof-tabiiy muhiti muhim rol egallashi, agroturizm orqali qishloqlar rivojlanishi hamda landshaftlar yaxshilanishini tadqiq qilishgan (Flanigan va boshq., 2014).

Carla Barbieri, Christine Tew (Barbieri va Tew, 2016), Neda Tiraieyari va Azimi Hamzah (Tiraieyari va Hamzah, 2012), Anna Czmyk, Jaroslaw Uglis, Sylwia Graja-Zwolin' Ska, Magdalena Mac' Kowiak, Aleksandra Spychala va Jan Sikoral (Jeczmyk, 2015) ning tadqiqotlarida agroturizm xizmatlarini yo'lga qo'yish natijasida fermerlarning o'z faoliyatlarini xilma-xil qilishga bo'lgan motivatsiyasi, fermer va uy xo'jaliklarining qo'shimcha daromadlari oshishi (Baymuradova, 2022). hamda qishloq taraqqiyotiga katta hissa qo'shishi imkoniyatlari to'g'risida bayon etilgan.

O'zbek olimlaridan Tog'aymurodov, Amirov (2023), Husanboyevlarning (2023) dissertatsiya ishlarida qishloq xo'jaligida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish orqali qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish, agroturizm faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni boshqarish masalalari ustida tadqiqot olib borilgan.

¹¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlari, <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/#uzbekistan-tourism-revenue>

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil uchun Samarqand viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasining 2016-2023-yillar ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, ma'lumotlar Samarqand viloyatining Ishtixon, Oqdaryo, Payariq, Jomboy, Bulung'ur, Tayloq, Urgut, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om, Narpay, Paxtachi, Nurobod tumanlaridan 2023-yil iyun-noyabr oylarida so'rovnoma va eksperiment o'tkazish orqali to'plandi. So'rovnomada yuqorida keltirilgan hududlardan ixtiyoriy tanlanma asosida 153 nafar qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiquvchi turli xo'jaliklar qamrab olindi. Ma'lumotlar Samarqand viloyatining tog' va tog'oldi, sug'orma dehqonchilik qilinadigan tekisliklar hamda cho'l hududlariga ajratib olindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda so'nggi yillarda O'zbekistonga sayyohlar oqimi oshib bormoqda. 2023-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar soni o'tgan davr bilan solishtirilganda pandemiyadan oldingi ko'rsatkichga erishdi, ya'ni 7 millionga yaqin sayyoh tashrif buyurdi va 2025-yilda bu miqdorni qariyb 12 million nafarga yetkazish reja qilingan:

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlari, ming kishi (2016-2023)¹²

No	Kirish va chiqish turizmi	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Xorijiy turistlar	2 027,0	2 690,1	5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,78	6 626,33
1.1.	<i>Jumladan, Samarqand viloyatida</i>	178,2	179,6	351	560	152	119	1 204,2	2 153,0
2.	Ichki turistlar	8855,2	10562,1	12 489,2	14 748,0	3 534,1	5 813,9	11 435,5	20 638,14
2.1.	<i>Jumladan, Samarqand viloyatida</i>	980,0	1 400,0	2 105,0	2 560,0	51,9	1 943	4 247,0	4 500,0

Respublika hududida 2016-2019-yillar oralig'ida mamlakatga xalqaro hamda mahalliy turistlar tashrifi yildan-yilga oshib borgan, xususan, bu ko'rsatkichning Samarqand viloyatida ham parallel ravishda o'sib borganini kuzatish mumkin. 2020-2021-yillar dunyodagi barcha davlatlarda sayyohlik sanoatida tiklanish davri bo'ldi va pandemiyadan keyingi turizm darajasi oshishi 2022-yildan boshlandi. Bunga asosiy sabablar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi 232-son qaroriga muvofiq "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil dasturi" doirasida belgilangan imtiyozlar va to'lovlardagi chegirmalar, shuningdek, viloyatdagi turizm qishlog'i hamda mahallalari sonining oshishi, yangi mehmon uylari va xostellar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, turmarshrut yo'nalishlarining ko'payishi bilan bog'liq.

Sayohatchilar oqimini ko'paytirish masalasi ularni turistik obyektlarga jalb etish, ommaviy turizmning boshqa yo'nalishlarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa barqaror rivojlanish maqsadlarini ko'zlagan turizm turlari – agroturizm, ekoturizm, qishloq turizmi kabilarni rivojlantirishga mamlakatimizda so'nggi besh yil ichida katta e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli qaroriga muvofiq Samarqand viloyati Urgut tumanining Qoratepa, Omonqo'tan qishloqlari, Samarqand tumanining Ohalik va Mironkul qishloqlaridagi tog'li hudud hamda o'rmon, qarag'ayzorlarda


¹² Samarqand viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi ma'lumotlari, 2016-2023

agroturizm korxonalarini tashkil etish masalalarining belgilanganligi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir.

O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasining 2019-2020-yillar ma'lumotlariga ko'ra mamlakatda jami 95ta agroturistik xizmatlarni taqdim qiluvchi obyektlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati Samarqand hamda Toshkent viloyatlariga to'g'ri keladi. Samarqand viloyatida 2019-yildan buyon tashkil bo'lib kelayotgan 12 ta agroturistik obyektlarda mehmonxona xizmati, issiqxonada ekskursiya qilish, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini tatib ko'rish (degustatsiya) va ularni to'g'ridan-to'g'ri dehqondan sotib olish, sut sog'ishda qatnashish va tabiiy ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish xizmatlari taqdim etilayotganligi qayd qilingan.

Ammo tadqiqot natijasida aniq bo'ldiki, Samarqanddagi mavjud agroturizm obyektlari o'simlikchilik va chorvachilik yo'nalishida turistlar uchun servis yaratib berish potensialiga ega yirik xo'jaliklar orasidan tanlab olingan. Xolbuki, bunday servisni viloyatda kichik fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa xo'jaliklari ham ko'rsata olishi aniqlandi. AQSh tajribasida ham agroturizmni ayniqsa yangi tashkil etilgan va ayni paytda kichik oilaviy fermer xo'jaliklarida rivojlantirish afzalligini ko'rsatgan (Barbieri va Tew, 2016). Viloyatning tog'li, cho'lli va sug'oriladigan hududlaridagi 153 ta qishloq xo'jaligi korxonalaridan olingan so'rovnoma ma'lumotlaridan aniqlandiki, fermer xo'jaliklari, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida ham turistik xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda. Bunday xo'jaliklar asosan Urgut tumanidagi qishloqlarda ko'p uchraydi (1-rasm)¹³.


Respondentlarning 39 nafari o'z xo'jaligiga turistlar tashrif buyurishi hamda ularga turli xizmatlar ko'rsatilishi to'g'risida ma'lumot bergan. Shulardan Urgut tumanida 13 ta, Samarqand tumanida 9 ta, Kattaqo'rg'on tumanida 4 ta, Payariq tumanida 4 ta, Bulung'ur tumanida 3 ta, Paxtachi tumanida 2 ta va Oqdaryo, Ishtixon, Jomboy, Tayloq tumanlarida bir nafardan agroturizm xizmatlarini taqdim qiluvchi xo'jaliklar mavjud.




1-rasm. Samarqand viloyatida tumanlar kesimida turistlarga xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar ulushi

Viloyatdagi deyarli barcha qishloq xo'jaligi korxonalarida sayyohlarni qabul qilish va ularga gastronomik yoki rekreatsion xizmatlarni taqdim etish uchun imkoniyatlar keng. Ularning ba'zilari asosiy ish faoliyatidan tashqari turistlarga turli xizmatlarni taqdim etadi (2-rasm).

¹³ Monografik kuzatuvlar asosida muallif ishlanmasi.



2-rasm. Xo'jaliklarda ko'rsatiladigan xizmatlar turlari.




3-rasm. Agroturistlarni qiziqtiruvchi xizmatlar turlari.¹⁴

¹⁴ Monografik kuzatuvlar asosida muallif ishlanmasi.

2- va 3-rasmlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, turistlarni xohishiga ko'ra ekskursiya qilish, ya'ni ekskursion ta'lim olish, rasmga tushish va hordiq chiqarish xizmatini taqdim qiluvchi obyektlar eng yuqori salmoqni egallaydi. Piyoda sayr qilish, mahsulotlarni tatib ko'rish (degustatsiya), meva-sabzavotlarni o'zi terish, restoran va turar-joy kabi xizmatlar ham taklif, ham talab tomondan yuqori qiziqish bildirilgan. Chorva hayvonlariga g'amxo'rlik qilish, hosil bayramlari, festivallar o'tkazish sayyohlarda o'rtacha ishtiyoq uyg'otsa-da, bunday xizmatlar ko'p xo'jaliklarda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ammo baliq ovlash, ot-tuya minish, xo'jalikdagi suv havzalarida suzish, ov qilish, sport tadbirlari va kemping xizmatlariga talab ko'p, lekin bunday xizmatlarni ko'rsatuvchi xo'jaliklar soni nisbatan kam. Ushbu nomutanosibliklar xo'jaliklarning potensial imkoniyatlari va turistlarning xohish-istaklari asosida Respublikada agroturizmni rivojlantirishda optimal bo'lgan xizmatlar paketini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'diradi.

Agroturizm to'g'risida Respublikada aksariyat xo'jaliklar hamda sayyohlarda yetarli axborot mavjud bo'lmasa-da, turizm sanoatida olib borilgan islohotlar natijasida agroturistik bilim keng ko'lamda tarqalib bormoqda. Xususan, Samarqand viloyati hududlarida 210 nafar mahalliy va xorijlik turistlardan olingan so'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra xalqaro sayyohlarning 68,5%, ichki turistlarning 70,7% agroturizm to'g'risida bilishi aniqlangan (4-rasm):



4-rasm. Xorijiy va mahalliy turistlarning agroturizmga munosabatlari bo'yicha ma'lumotlar

Bunda tabiiyki, agroturizm obyektlariga borib, xizmatlaridan foydalangan sayohatchilar u haqida ma'lumotga ega hamda yaqindan bilishadi. Agroturizmni bilgan xalqaro sayyohlarning 90,8%, ichki sayyohlarning 97,4% obyektga borib, qishloq xo'jaligida yaratilgan xizmatlarni iste'mol qilishgan. Ko'rsatilgan servis 63 nafardan iborat ham tashqi, ham ichki turistlarning talabiga to'liq javob bergan. 86,8% xorijiy fuqarolar, 87,1% mahalliy fuqarolar yana agroturistik obyektlarga tashrif buyurish istagini bildirgan. Xorijiy sayyohlarning 31,5%, mahalliy turistlarning 29,3% agroturizm haqida bilmasligi aniqlandi. Bu esa agroturistik salohiyatni oshirish va xo'jaliklarda agroturizmni rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini qo'llashni taqozo qiladi.

Xulosa va takliflar.

Respublikada agroturizm rivojlanishining hozirgi holatini o'rganish ustida olib borilgan tadqiqot natijasida shu xulosaga kelindiki, agroturizmni mamlakatimiz hududida rivojlantirish, turistlarni qishloq xo'jaligi korxonalariga jalb qilish uchun potensial yetarli. Tadqiqot natijasida agroturistik xizmatlarini ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini soni Turizmni rivojlantirish

Davlat qo'mitasining ma'lumotlarida berilganidan ham ko'proqni tashkil qilishi aniqlandi. Chunki, ular orasida aksariyati kichik fermer, dehqon hamda uy xo'jaliklari sifatida faoliyat yuritayotganliklari, shuningdek, xo'jalik egalari agroturizm to'g'risida yetarli tushuncha va malakaga ega bo'lmaganliklari natijasida sayyohlarni o'z faoliyatlariga jalb qilishda oqsashmoqda. Shunday bo'lsa-da, turistlardan olingan so'rovnoma ma'lumotlari asosida bilish mumkinki, agroturizm to'g'risida sayyohlar ko'proq bilishadi va bunday turistik joylarga borishni, qayta tashrif buyurishni xohlashadi.

Demak, sayyohlar oqimini ko'paytirish, sayohat muddatini uzaytirish uchun mamlakatda turizmning boshqa yo'nalishlari – agroturizmni yanada rivojlantirish, mavjud agroturistik obyektlar infratuzilmasini yaxshilash, turistik firmalar hamda qishloq xo'jaligi korxonalarining birgalikdagi faoliyati sifatida agroturistik assotsiatsiyalarni tashkil etish kabi yangicha tizimlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/ Jumepamyra/ Reference:

Amirov A.M. (2023) – “Agroturizmni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va istiqbolli yo'nalishlari”, (Samarqand viloyati misolida), *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*.

Barbieri, C., & Tew, C. (2016). *Perceived impact of agritourism on farm economic standing, sales and profits*.

Baymuradova, I. S. (2022). *Agroturizm: O'zbekistondagi fermerlar va mahalliy aholi uchun potensial imkoniyatlar. Academic research in educational sciences, (Conference), 86-94.*

Flanigan, S., Blackstock, K., & Hunter, C. (2014). *Agritourism from the perspective of providers and visitors: A typology-based study. Tourism Management, 40, 394-405.*

Husanboyev S.Y. (2023) – “Farg'ona viloyatida agroturizm faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish”, *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*.

Jęczyk, A., Uglis, J., Graja-Zwolińska, S., Maćkowiak, M., Sychała, A., & Sikora, J. (2015). *Research note: Economic benefits of agritourism development in Poland – An empirical study. Tourism Economics, 21(5), 1120-1126.*

Lupi, C., Giaccio, V., Mastronardi, L., Giannelli, A., & Scardera, A. (2017). *Exploring the features of agritourism and its contribution to rural development in Italy. Land use policy, 64, 383-390.*

Tiraieyari, N., & Hamzah, A. (2012). *Agri-tourism: Potential opportunities for farmers and local communities in Malaysia. African journal of agricultural research, 6(31), 4357-4361.*

Tog'aymurodov E.B. (2023) – “Qishloqda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari”, (Samarqand viloyati misolida), *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*.